



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3765
2026 - yil 29 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "[Ta'lim to'g'risida](#)"gi va "[Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida](#)"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PF-161-son "Islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda vazirlik va idoralarning mas'uliyati va tashabbuskorligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [Farmoni](#) va 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [qaroriga](#) muvofiq **buyuraman:**

1. Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.
3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 28-yanvar
20-mh-son



KARIMOVA E'ZOZXON
GAPIRJONOVNA

Kelishildi:

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy
agentligi direktori
2026-yil 28-yanvar



OLLOYOROV MANSURBEK
POLVONZODA

Tadbirkorlarning huquqlarini
himoya qilish bo'yicha vakil
2026-yil 19-yanvar



BURIYEV ABDUMANNOP
ABDURAXMATOVICH

Vazir
2026-yil 16-yanvar



KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Direktor v.v.b
2026-yil 14-yanvar



MASHANPIN TIMUR
VASIKOVICH

Vazir
2026-yil 9-yanvar



XIDOYATOV SHERZOD
SAIDJANOVICH

Rais
2026-yil 9-yanvar



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

Vazir
2026-yil 9-yanvar



KUDRATXODJAYEV BOTIR
BAXROMOVICH

Vazir
2025-yil 29-dekabr



XUDAYAROV ASILBEK
ANVAROVICH

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2026-yil 28-yanvardagi 20-mh-son buyrug'iga

ILOVA

**Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim
tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to'g'risidagi
nizom**

Mazkur Nizom davlat maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlashga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Ushbu Nizom nodavlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, ularni moddiy-texnik jihozlash litsenziya talablari asosida amalga oshiriladi.

1-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plamlari, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son [qarori](#) bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida nazarda tutilgan minimal ro'yxat va [me'yorlar](#) asosida amalga oshiriladi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plamlari, o'yinchoqlar, mebellar, jihozlar va boshqa texnik vositalar, shuningdek ular bo'yicha qo'llanmalar bilan jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan mintaqa xususiyatlari inobatga olinishi;

ko'p funksiyali, xavfsiz, bino o'lchamiga mos va sifatli materiallardan foydalanilishi;

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan va inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkinligi hisobga olinishi;

mashg'ulot (guruh) xonalari, yotoqxonalar va boshqa xonalar uchun mo'ljallangan mebellarning korpuslari mustahkamlik darajasi hamda yumshoqlik

ko'rsatkichlari Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini jihozlashda foydalaniladigan mebellarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena [talablariga](#) (0057-23-son SanQvaN) muvofiq bo'lishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'yinlar to'plamlari, o'yinchoqlar, mebellar (stollar, stullar, krovatlar, javonlar, shkaflar, shuningdek yotoqxonalar, hojatxona, yuvinish, kiyim almashtirish, mashg'ulot (guruh) va ovqatlanish xonalaridagi mebellar), jihozlar, qo'llanmalar hamda boshqa texnik vositalar yaroqlilik (saqlash) muddati, sifat ko'rsatkichlari, bolalarning yosh xususiyatlari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablarini inobatga olgan holda xarid qilinishi;

qo'shimcha xonalarni (musiqa zali, jismoniy tarbiya zali, kutubxona, kir yuvish xonasi, oshxona, tibbiy xizmat ko'rsatish xonasi, ma'muriy-metodik xonalar, xo'jalik xonalari va boshqalar) jihozlashda maktabgacha ta'lim tashkilotining quvvati hisobga olinishi;

qo'shimcha didaktik materiallar, tarqatmalar, kartochkalar, ko'rgazmalar, turli yo'nalishdagi mashg'ulotlar uchun materiallar, tasviriy faoliyat, qurish-yasash va jismoniy tarbiya uchun o'quv qurollari, asbob-uskunalar va sport anjomlari yil davomida o'tkaziladigan tadbirlar, musobaqalar va tanlovlarning ishlanmalari bilan ta'minlanishi;

mashg'ulot (ta'lim-tarbiya) jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali materiallar va jihozlarning bolalar uchun qulay holda joylashtirilishi;

bolalar uchun mo'ljallangan ikki va to'rt o'rinli stol va o'rindiqlar bolalarning yoshiga (bo'y ko'rsatkichlariga) mos ravishda tanlanishi;

yotoqxonalar bolalarning soniga mos yotoq anjomlari va maxsus mebel jihozlari bilan ta'minlanishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining hududi, binolari va guruh xonalarining ichki qismida ovoz yozish funksiyasiga ega va kamida bir oy davomida videoyozuvlarni elektron arxivda saqlaydigan kuzatuv kameralarining o'rnatilishi;

xonalar, koridorlar va zallarda tabiiy gullar xavfsiz holda joylashtirilishi hamda quyosh nuridan muhofaza qiluvchi pardalar o'rnatilishi;

guruh xonalarida zamonaviy kompyuter texnikalari, multimedia vositalari, internet tarmog'i, chop etish qurilmalari va namoyish etish vositalari (televizor, videoprojektor, interaktiv doska va boshqalar) bolalar yoshiga mos holda o'rnatilishi;

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlarining (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi) mavjud bo'lishi;

oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimiga (markazlashgan yoki avtonom) ulangan bo'lishi.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining hududini moddiy-texnik jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

hududga kirish qismi darvozasining ikki tomoniga maktabgacha ta'lim tashkilotining raqami yozilgan peshlavha o'rnatilgan bo'lishi;

hududga kirish eshigida chaqiruv qo'ng'irog'i qurilmalari o'rnatilgan bo'lishi;

xavfsizlikni ta'minlash maqsadida hudud mustahkam va baland devor yoki panjaralar bilan o'ralgan bo'lishi;

darvozalarning ochilishi va yopilishi qulay bo'lishi hamda qulflanadigan va elektron nazorat qilinuvchi moslamalar o'rnatilishi;

hududning turli joylarida mustahkam va xavfsiz o'rindiqlar joylashtirilgan bo'lishi;

hududda manzil bo'ylab to'g'ri harakatlanish uchun maxsus belgilar, strelkalar va ko'rsatkichlar (navigatsiya tizimi) mavjud bo'lishi;

ichki va tashqi hududlarni obodonlashtirish uchun xo'jalik mollari hamda elektrotexnika asbob-uskunalari bilan ta'minlanishi;

chiqindilarni to'plash uchun ranglar bilan ajratilgan maxsus qutilar (urnalar) bo'lishi;

bolalar uchun xavf tug'dirmaydigan o'yin maydonchalari, piyodalar yo'laklari va himoya to'siqlari o'rnatilgan bo'lishi;

barcha jihozlar bolalarning yoshiga va rivojlanish darajasiga mos tarzda tanlangan bo'lishi;

hududda bolalarni jismoniy rivojlantiruvchi o'yin maydonchalari bo'lishi va ushbu maydonchalarda bolalar yoshiga mos turli xil o'yin qurilmalarining (tekis yoki bo'rtma yugurish yo'laklari, tebranish qurilmalari, labirintlar va boshqalar) joylashtirilishi;

bolalar uchun xavf tug'dirmaydigan tashqi basseyn xavfsiz cho'milish uchun qulay va bolalar yoshiga mos bo'lishi hamda basseyn suvi har kuni almashtirilishi;

bolalar uchun qumdonlar qum va o'yinchoqlar bilan to'ldirilgan bo'lishi;

hudud bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xavfsiz materiallardan tayyorlangan o'yin jihozlari va inventarlar bilan bezatilishi;

bolalarning tabiatga bo'lgan muhabbatini oshirish maqsadida zaharsiz va xavfsiz madaniy o'simliklar va gullar o'stirish imkoniyatining mavjudligi;

hududda sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq sharoitlar yaratilishi hamda hojatxonalar, gigiyena vositalari, ichimlik suvi, issiq va sovuq suv ta'minoti tizimlarining mavjud bo'lishi;

yoritish tizimlarining o'rnatilishi hamda quyosh nurlaridan himoya vositalari bilan jihozlanishi;

hududdagi barcha jihozlar va inventarlar, o'yin maydonchalari, harakat yo'laklari va hojatxonalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda jihozlangan bo'lishi, shu jumladan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun panduslar, tutqichlar va Brayl yozuvli mnemosxemalar, rasmi badiiy kitoblar va maxsus ko'rsatmalar bilan ta'minlanishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining hududi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi [nizom](#) (ro'yxat raqami 3012, 2018-yil 14-may) talablariga muvofiq jihozlanishi kerak.

4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bino va inshootlarining foye va yo'laklarni jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

foyega kirish qismi devoriga vatanparvarlik va ma'naviyat burchaklari tashkil etilishi hamda ular O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida bezatilishi, O'zbekiston davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) aks ettirilgan stendlar o'rnatilishi;

foye va yo'laklar bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tarzda bezatilishi, devorlarga bolalar ijodiy ishlari, rang-barang rasmlar va ko'rgazmali vositalar baland bo'lmagan holda joylashtirilishi;

foye va yo'laklarda bolalarning yoshiga mos mebellar, shu jumladan divanlar, o'rindiqlar, kutish joylari, bolalarning buyumlarini saqlash uchun kiyim javonlari va shkaflari o'rnatilishi;

foye va yo'laklardagi ko'rgazmali vositalar bolalar va tashrif buyuruvchilar uchun tushunarli va aniq bo'lishi, shuningdek texnika va yong'in xavfsizligi

qoidalari, evakuatsiya yo‘nalishlari va boshqa zarur ma’lumotlarning mavjud bo‘lishi;

bolalarning hayotini muhofaza qilish maqsadida xodimlar ko‘rishi mumkin bo‘lgan joylardagi e‘lonlar taxtasiga yong‘in xavfsizligi, ichki ishlar organlari, tez tibbiy yordam xizmatlari hamda favqulodda vaziyatlar, yagona dispetcherlik xizmati telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotlar hamda telefon apparati joylashtirilgan bo‘lishi;

evakuatsiyada foydalanish uchun zarur uskunalarning o‘rnatilgan bo‘lishi;

tabiiy yoritishga alohida e‘tibor qaratilishi, shuningdek zarur hollarda qo‘shimcha sun‘iy yoritish vositalari o‘rnatilishi;

alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar ehtiyojlariga mos tutqichlar, panduslar va maxsus ko‘rgazmalar bilan jihozlanishi;

har bir xona eshigida ularning nomi yozilgan ma’lumotlar yozuvi o‘rnatilgan bo‘lishi;

yumshoq, yarim yumshoq va qattiq mebel jihozlari bilan ta‘minlanishi.

5. O‘yinlar to‘plamlari va o‘yinchoqlar, shu jumladan rivojlantiruvchi didaktik o‘yinlar va o‘yin markazlari jihozlari hamda ko‘rgazmali materiallar bilan jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

a) jihozlashga qo‘yiladigan didaktik talablar:

bolalarning yoshiga mos bo‘lishi;

milliy qadriyatlarga asoslangan bo‘lishi;

tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi;

hammabop bo‘lishi;

b) jihozlashga qo‘yiladigan psixologik talablar:

bolaning ruhiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi;

zo‘ravonlikka undamasligi;

bolani ijodkorlikka va kreativ fikrlashga undashi;

bolani ruhiy jihatdan rivojlantirishi;

tinchlantiruvchi yorqin ranglarning tanlanishi;

c) jihozlashga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari:

bola hayoti va sog‘ligiga xavf soladigan materiallardan tayyorlanmasligi;

foydalaniladigan materiallar ekologik toza bo‘lishi;

foydalanishga chidamli va mustahkam, yorqin ranglarda bo‘lishi;

dezinfeksiya choralari chidamli bo‘lishi;

zararli hid chiqarmasligi, rangi bo'yalmasligi;
vazni bolalar yoshiga mos bo'lishi (og'ir bo'lmasligi);
o'tkir qirralari va sanchiladigan qismlari bo'lmasligi.

2-bob. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari

6. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun zarur bo'ladigan jihozlar [me'yorlariga](#) (ro'yxat raqami 2935, 2017-yil 16-oktabr) muvofiq jihozlanishi kerak.

7. Umumiy o'rta ta'lim tashkiloti hududini jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

umumiy o'rta ta'lim tashkiloti hududiga kirish qismida bayroq ko'tarish moslamasi ("flag-stock") hamda kirish darvozasining peshtoqida katta harflar bilan muassasa raqami bo'lishi;

hududning kirish qismida darvozaning ikki tomoniga muassasa nomi yozilgan peshlavha o'rnatilishi (chap tomonida davlat tilida va o'ng tomonida ta'lim turi boshqa tilda olib boriladigan bo'lsa, tegishli tilda yoziladi);

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishi uchun shaharsozlik normalari va qoidalari talablari asosida zarur sharoitlar yaratilishi, shu jumladan o'rindiqli aravachadan foydalanadigan nogironligi bo'lgan shaxslarning bino va inshootlarga kirishi va chiqishi uchun pandus va tutqichlarning o'rnatilishi;

xavfsizlikni ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim tashkilotining hududi mustahkam va baland devor yoki panjaralar bilan o'ralgan bo'lishi;

darvozalarning ochilishi va yopilishi qulay va qulflanadigan bo'lishi hamda elektron nazorat qilinuvchi moslamalar o'rnatilishi;

sport maydonlari (chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik, yo'l harakati qoidalari, o'yin va bolalar maydonchasi, futbol maydoni va boshqalar) va jismoniy mashqlar uchun "workout" maydonchalarining mavjud bo'lishi;

geografiya fanining amaliy mashg'ulotlarida tajribalar o'tkazish uchun maxsus geografiya maydonchasining tashkil qilinishi hamda tajribalar uchun asbob-uskunalar bilan jihozlanishi;

umumiy o'rta ta'lim tashkiloti hududining turli joylarida mustahkam va xavfsiz o'rindiqlar o'rnatilishi;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotining o'quv binoalariga yaqin joylarda velosipedlar uchun maxsus joy (turargoh) tashkil etilishi hamda zarur inventarlar

bilan jihozlangan bo'lishi;

hududda manzil bo'ylab to'g'ri harakatlanish uchun maxsus belgilar, kontrast rangdagi strelkalar va ko'rsatkichlar (navigatsiya tizimi) o'rnatilishi;

elektr tejamkor tungi yoritish chiroqlar bilan ta'minlanishi;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotining ichki va tashqi hududlarini obodonlashtirish uchun xo'jalik mollari hamda elektrotexnika asbob-uskunalarining mavjudligi;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotining hududi chiqindilarni to'plash uchun ranglar bilan ajratilgan maxsus qutilar (urnalar) bilan jihozlanishi;

oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimiga (markazlashgan yoki avtonom) ulangan bo'lishi.

8. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotidagi bino va inshootlarining foye va yo'laklarini jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

foyega kirish qismi devoriga O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) aks ettirilgan stendlar o'rnatilishi;

stendlar o'quvchilarga ko'rinadigan qulay balandlikda joylashtirilishi (ko'rgazmalar davlat tilida, shuningdek ta'lim turi boshqa tillarda olib boriladigan hollarda qo'shimcha tarzda mazkur tillarda yozish tavsiya etiladi);

yo'laklar, devorlar va zinapoyalardan o'rgatish hududi sifatida foydalanish maqsadida dars mashg'ulotlariga oid chizma, shakl, infografika va stendlarning mavjud bo'lishi (chizma, shakl, infografika va stendlar binoda tahsil oluvchi o'quvchilarning sinfidan kelib chiqib, boshlang'ich yoki yuqori sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan bo'lishi tavsiya etiladi);

bino yo'laklaridagi pollar to'siqsiz bo'lishi, devorlar va zinapoyalarning o'quvchilar harakatlanishi uchun qulayligi hamda o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida tutqichlar o'rnatilishi. Bunda, alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun zinapoyalar maxsus ko'tarish-tushirish moslamalari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim;

foyening hajmidan kelib chiqqan holda tashrif buyuruvchilar uchun kutish joylari tashkil etilishi (mazkur joylar qulay o'rindiqlar, axborot stendlari, suv dispanserlari, kitob va jurnallar uchun javonlar, yashil burchaklar, Wi-Fi hududlar, zaryadlovchi stansiyalar hamda bolalar uchun kichik o'yingohlar burchagi bilan ta'minlash tavsiya etiladi);

bino yo'laklarining keng va harakatlanishga xalaqit bermaydigan qismlarida o'quvchilar uchun qulay, ergonomik o'rindiqlar hamda yuqori sinf o'quvchilariga shaxsiy buyumlarni saqlash uchun javonlar o'rnatilishi (yuqori sinf o'quvchilariga shaxsiy buyumlarni saqlash uchun javonlar sinf xonalarida o'rnatilishi mumkin). Bunda, boshlang'ich ta'lim sinf o'quvchilari uchun shaxsiy javonlar sinf xonalarida joylashtiriladi.

9. Dars jarayonida ishlatiladigan ko'rgazmali o'quv qurollari o'quvchilar uchun qulay holda joylashtirilishi hamda sinf o'quvchilari bo'yining guruhlanishi inobatga olinishi kerak.

3-bob. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilari uchun maxsus yordam ko'rsatish xonalarini moddiy-texnik jihozlash talablari

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi [qaroriga](#) muvofiq inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishi, ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda ularga turli ko'rinishda psixologik yordam berish maqsadida maxsus yordam ko'rsatish xonalari tashkil etiladi.

11. Maxsus pedagoglar va (yoki) yordamchi xodimlar maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boradi. Maxsus yordam ko'rsatish xonalari ta'lim samaradorligi va bolalarning ehtiyojlariga mos keladigan, mustahkam va o'tkir burchagi bo'lmagan jihozlar hamda o'quv materiallari bilan jihozlanadi.

12. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus yordam ko'rsatish xonalarida quyidagi jihozlar bo'lishi talab etiladi:

bolalarning tana tuzilishiga moslashadigan ergonomik stol va stullar;
vizual va interaktiv o'quv materiallarni namoyish qilish uchun zamonaviy ekran vositalari (interaktiv doska va proyektor);

bolalarning sensor ehtiyojlarini qondirish va diqqatini oshirishga yordam beruvchi maxsus sensorli o'yinchoqlar va taktil materiallar;

bolalarning ko'zlarini charchatmaydigan sun'iy yoritish vositalari;

zamonaviy kompyuter texnikalari va chop etish vositalari;

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun eshitish uskunalari va ovoz kuchaytirgichlar;

o'quv qurollari, ko'rgazmali qurollar va boshqa materiallarni saqlash uchun maxsus mebellar (javon va shkaflar);

xonalarni quyosh nuridan muhofaza qilish uchun pardalar;

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi);

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

o'qituvchi uchun ish joyi (ish stoli va yumshoq o'rindiq);

sinf doskasi;

sanitariya burchagi uchun gigiyena vositalari;

bolalar toliqqanda yoki ruhiy holati o'zgarganda dam olishlari uchun maxsus burchak, yostiqlar, pufiklar va o'yinchoqlar.

4-bob. Qo'shimcha ta'lim muassasalarini moddiy-texnik jihozlash talablari

1-§ Bolalar kutubxonalarini moddiy-texnik jihozlash talablari

13. Bolalar kutubxonalarini madaniy dam olish markazlari (ijtimoiy-madaniy majmua va boshqalar) binolariga joylashtirishda bolalar kutubxonalarining funksional xususiyatlarini hamda kutubxona fondlarining saqlanishi va foydalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlovchi maxsus xonalar nazarda tutilishi kerak.

Bolalar kutubxonasini alohida binoga, turar joy yoki jamoat binosiga tutashgan blok-binoga yoki shaharsozlik norma va qoidalariga rioya etgan holda bolalar kutubxonasining funksional vazifasi va faoliyat doirasiga mos keladigan maxsus moslashtirilgan turar joy yoki jamoat binosining binolariga joylashtirish tavsiya etiladi.

14. Bolalar kutubxonasi hududi o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan va bolalar tomonidan oson tanib olinadigan, do'stona, jozibali va qulay joy bo'lishi lozim (maxsus mebel, rang va dekorativ dizayn va boshqalar).

15. Bolalar kutubxonasidagi uskunalar, dasturiy ta'minotlar va ma'lumotlar bazalari yangilab borilishi lozim.

16. Bolalarga mobil kutubxona xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kutubxonalari maxsus jihozlangan transport vositalari – bibliobuslar bilan ta'minlanishi kerak. Bunda, bibliobuslar o'rindiqli aravachadan foydalanadigan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va yig'ma pandusli bo'lishi talab etiladi.

17. Uslubiy, monitoring, ma'lumot, bibliografiya va adabiyotlarini saqlash bo'limlari hamda shtatlar jadvalida ko'rsatilgan mutaxassislik bo'yicha har bir xodimning xonasini jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim

xodimlar uchun ish joylari (ish stollari va yumshoq stullar);

yumshoq, yarim yumshoq va qattiq mebel jihozlari (katalog yashigi, javonlar, shkaflar, divanlar, kreslolar va boshqalar);

zamonaviy kompyuter texnikalari;

hujjatlar va adabiyotlarni nusxalash, ko'paytirish va raqamli formatga aylantirish uchun mo'ljallangan qurilmalar;

aloqa vositalari;

foydalanuvchilarning ovozli va vizual ma'lumotlarga kirishini ta'minlaydigan vositalar;

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi);

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

quyosh nuridan muhofaza qiluvchi pardalar;

suv dispanserlari.

18. Axborot-resurslari va texnologiyalari bo'limi quyidagilar bilan ta'minlanishi lozim:

xodimlar uchun ish joylari (ish stollari va yumshoq stullar);

yumshoq, yarim yumshoq va qattiq mebel jihozlari (yarim yumshoq stullar, javonlar, shkaflar, divanlar, kreslolar va boshqalar);

zamonaviy kompyuter texnikalari;

hujjatlar va adabiyotlarni nusxalash, ko'paytirish va raqamli formatga aylantirish uchun mo'ljallangan qurilmalar;

aloqa vositalari;

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi);

bolalar kutubxonasini RFID ("Radio Frequency Identification") texnologiyasi asosida jihozlash uchun zarur uskunalar jamlanmasi;

bolalar kutubxonasining kirish qismida o'rnatiladigan elektron nazorat qilinuvchi moslamalar;

server texnologiyasi va dasturlari to'plami;

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

kompyuter uchun qo'shimcha xotira qurilmalari.

19. Media bo'lim xonasi quyidagilar bilan ta'minlanishi lozim:

xodimlar uchun ish joylari;

ofis va studiya mebel jihozlari (studiya stoli, o'qish stoli va yashigi, yarim yumshoq stullar, javonlar, shkaflar, divanlar va boshqalar);

audio va studiya uskunalari to'plamlari;

zamonaviy kompyuter texnikalari;

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

aloqa vositalari;

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi).

20. Kompyuter xonasi quyidagilar bilan ta'minlanishi lozim:

interaktiv doskalar;

mutaxassislar uchun ish joylari (kompyuter stollari va yumshoq stullar);

mutaxassislar uchun zamonaviy kompyuter texnikasi jamlanmalari (chop etish qurilmasi bilan);

hujjatlar va adabiyotlarni nusxalash, ko'paytirish va raqamli formatga aylantirish uchun mo'ljallangan qurilmalar;

foydalanuvchilar uchun o'qish joylari (kompyuter stoli va stol to'plamlari);

foydalanuvchilar uchun zamonaviy kompyuter texnika to'plamlari;

aloqa vositalari;

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi);

multimedia vositalari;

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

dasturiy ta'minotni amalga oshirish bo'yicha maxsus kompyuter texnikalari

yuqori kuchlanishga bardoshli uzluksiz quvvat ta'minoti (UPS);
ko'rgazmali vositalar va kiyim uchun shkaflar.

21. Xizmat ko'rsatish bo'limi va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish bo'limi xonalari quyidagilar bilan ta'minlanishi lozim:

xodimlar uchun ish joylari (ish stollari va yumshoq stullar);

zamonaviy kompyuter texnikalari;

o'quvchilari uchun o'quv joylari (stollar va stullar);

kitoblar uchun infokiosk qurilmalari;

hujjatlar va adabiyotlarni nusxalash, ko'paytirish va raqamli formatga aylantirish uchun mo'ljallangan qurilmalar;

ko'rgazmali vositalar;

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi);

yumshoq, yarim yumshoq va qattiq mebel jihozlari (katalog yashigi, yarim yumshoq stullar, javonlar, divanlar, kreslolar va boshqalar);

interaktiv doskalar;

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar).

22. O'quv zali quyidagilar bilan ta'minlanishi lozim:

yumshoq, yarim yumshoq, qattiq va ofis mebel jihozlari (yarim yumshoq stullar, javonlar, shkaflar, pufiklar, divanlar va boshqalar);

o'quvchilar uchun o'qish joylari (stollar va stullar);

doskalar;

multimedia vositalari;

zamonaviy kompyuter texnikalari;

hujjatlar va adabiyotlarni nusxalash, ko'paytirish va raqamli formatga aylantirish uchun mo'ljallangan qurilmalar;

ko'rgazmali vositalar;

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi).

23. Direktor va direktor o'rinbosari xonalari quyidagilar bilan ta'minlanishi lozim:

direktor va direktor o‘rinbosari uchun mo‘ljallangan ofis mebel jihozlari to‘plami (ofis stoli va kursi);

yumshoq, yarim yumshoq va qattiq mebel jihozlari (javonlar, shkaflar, seyflar, stullar, stollar va boshqalar);

aloqa vositalari;

zamonaviy kompyuter texnikalari;

hujjatlarni nusxalash va ko‘paytirish qurilmalari;

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

havoni tozalash va mo‘tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi).

24. Ko‘rgazmalar zali yoki xonasi quyidagilar bilan ta‘minlanishi lozim:

ko‘rgazma vositalari va devor uchun stendlar;

turli vitrinali mebel jihozlari;

maket va eksponatlarni qo‘yish uchun maxsus o‘rnatmalar.

25. Arxiv xonasi quyidagilar bilan ta‘minlanishi lozim:

yumshoq, yarim yumshoq va qattiq mebel jihozlari;

zamonaviy kompyuter texnikalari;

hujjatlar va adabiyotlarni nusxalash, ko‘paytirish va raqamli formatga aylantirish uchun mo‘ljallangan qurilmalar;

kitoblarni saqlash javonlari, shkaflar va stellajlar;

havoni tozalash va mo‘tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi).

26. Tadbirlar zali quyidagilar bilan ta‘minlanishi lozim:

zal o‘lchamidan kelib chiqib maxsus mebel jihozlari (majlis stoli (prezidium) va stullari, yarim yumshoq stullar);

multimedia vositalari;

ovoz kuchaytirgichlar;

zamonaviy kompyuter texnikalari;

ovoz yozish funksiyasiga ega kuzatuv kameralari;

quyosh nuridan muhofaza qiluvchi pardalar;

havoni tozalash va mo‘tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya tizimi).

27. Tibbiyot xonalari quyidagilar bilan ta‘minlanishi lozim:

shifokor va hamshira uchun ish joylari (stollar va stullar);
bemorlarni ko'rikdan o'tkazish va birinchi yordam ko'rsatish uchun joy.
Bunda, birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun qulay bo'lgan maxsus tibbiyot mebellar to'plami bo'lishi lozim;
tibbiy asbob-uskunalar, dori-darmonlar va tibbiy materiallarni saqlash uchun mebellar;
dorilar va tibbiy preparatlarni saqlash uchun muzlatgich;
tana haroratini o'lchash uchun vositalar;
har xil tibbiy materiallar va asbob-anjomlarni saqlash uchun mebel jihozlari.

2-§ “Kelajak” markazlarini moddiy-texnik jihozlash talablari

28. “Kelajak” markazlarining hududini jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

hududga kirish qismida bayroq ko'tarish moslamasining mavjud bo'lishi (“flag-stock”);

hududga kirish qismidagi darvozaning ikki tomoniga “Kelajak” markazining nomi yozilgan peshlavha o'rnatilishi (chap tomonida davlat tilida va o'ng tomonida ta'lim turi boshqa tilda olib boriladigan bo'lsa, tegishli tilda yoziladi);

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning (tashrif buyuruvchilarning) to'siqsiz harakatlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi, shu jumladan binolarga kirish va chiqish uchun pandus va tutqichlarning o'rnatilishi;

xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mustahkam va baland devor yoki panjaralar bilan o'ralgan bo'lishi;

darvozalar ochilib-yopilishi qulay bo'lishi hamda qulflanadigan va elektron nazorat qilinuvchi moslamalar o'rnatilishi;

hududning turli joylarida mustahkam va xavfsiz o'rindiqlar o'rnatilgan bo'lishi;

“Kelajak” markazining o'quv binolariga yaqin joylarda velosipedlar uchun maxsus joy (turargoh) tashkil etilishi hamda velosipedlar uchun maxsus joy (turargoh) zarur inventarlar bilan jihozlangan bo'lishi;

hududda to'g'ri harakatlanish uchun maxsus kontrast rangdagi belgilar, strelkalar va ko'rsatkichlar (navigatsiya tizimi) o'rnatilgan bo'lishi;

elektr tejamkor tungi yoritish chiroqlari bilan ta'minlanishi;

ichki va tashqi hududlarini obodonlashtirish uchun xo'jalik mollari hamda elektrotexnika asbob-uskunalar bilan ta'minlanishi;

hojatxonalar sanitariya-gigiyena talablari asosida gigiyena vositalari bilan ta'minlanishi. Bunda, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar (tashrif buyuruvchilar) uchun maxsus jihozlar bilan to'liq jihozlangan alohida kabinaga ega bo'lishi lozim;

chiqindilarni to'plash uchun hududda ranglar bilan ajratilgan maxsus qutilar (urnalar) bilan jihozlanishi.

29. "Kelajak" markazlari bino va inshootlarining foye va yo'laklarini jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

foyega kirish qismi devoriga O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) aks ettirilgan stendlar o'rnatilishi;

stendlar o'quvchilarga ko'rinadigan qulay balandlikda joylashtirilishi (ko'rgazmalar davlat tilida, shuningdek ta'lim turi boshqa tilda olib boriladigan hollarda qo'shimcha tarzda mazkur tilda yozish tavsiya etiladi);

yo'laklar, devorlar va zinapoyalardan o'rgatish hududi sifatida foydalanish maqsadida dars mashg'ulotlariga oid chizma, shakl, infografika va stendlarning mavjud bo'lishi (chizma, shakl, infografika va stendlar binoda tahsil oluvchi o'quvchilarning sinfidan kelib chiqib, boshlang'ich yoki yuqori sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan bo'lishi tavsiya etiladi);

foyening hajmidan kelib chiqqan holda tashrif buyuruvchilar uchun kutish joylari tashkil etilishi (mazkur joylar qulay o'rindiqlar, axborot stendlari, suv dispanserlari, kitob va jurnallar uchun javonlar, yashil burchaklar, Wi-Fi hududlar, zaryadlovchi stansiyalar hamda bolalar uchun kichik o'yingohlar burchagi bilan ta'minlash tavsiya etiladi);

bino yo'laklarining keng va harakatlanishga xalaqit bermaydigan qismlarida o'quvchilar uchun qulay, ergonomik o'rindiqlar hamda yuqori sinf o'quvchilariga shaxsiy buyumlarni saqlash uchun javonlar o'rnatilishi (yuqori sinf o'quvchilariga shaxsiy buyumlarni saqlash uchun javonlar sinf xonalarida o'rnatilishi mumkin). Bunda, boshlang'ich ta'lim sinf o'quvchilari uchun shaxsiy javonlar sinf xonalarida joylashtiriladi.

30. "Kelajak" markazlarining xonalari va ustaxonalarini jihozlashda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

"Kelajak" markazlari joylashgan binolarning barcha qismlari sanitariya-gigiyena, mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq jihozlanishi;

asbob-uskunalar va jihozlar bolalarning yoshi, guruhi hamda ta'lim oluvchilarning ixtisoslashuviga moslab tanlangan bo'lishi;

amaliy fanlar, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kasb-hunarga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini amalga oshirish uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi;

o'quv xonalarida bolalarning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan turli asbob-anjomlar, materiallar va vositalarning bo'lishi;

xonalar yoritish, isitish va shamollatish tizimlari bilan jihozlanishi;

ovoz yozish, tasvirga olish, multimedia va virtual reallik texnologiyalari zamonaviy vositalari bo'lishi;

barcha jihozlar va asbob-uskunalar bolalar salomatligiga xavf tug'dirmasligi hamda ekologik xavfsiz materiallardan tayyorlanishi.

31. "Kelajak" markazlarining xonalari va ustaxonalari quyidagilar bilan ta'minlanishi lozim:

multimedia vositalari;

quyosh nuridan muhofaza qiluvchi pardalar;
